



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tosheva N.T.

*BuxDPI Pedagogik ta’lim kafedrasii
professori p.f.f.d (PhD)*

Sayidova R.S.

*BuxDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi yo’nalishi
1-kurs magistranti*

Tayanch so‘zlar: kitobxonlik, konsepsiya, antropologiya, indikator, retrospektiv, intellectual.

Ключевые слова: чтение, концепция, антропология, индикатор, ретроспектива, интеллектуальный.

Key words: reading, concept, anthropology, indicator, retrospective, intellectual.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatining o‘rni va roli haqida gap boradi. Shuningdek kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijtimoiy yondashuv, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning konsepsiyasi va metodik ta‘minoti yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье говорится о месте и роли культуры чтения в развитии морально-нравственных качеств учащихся начальных классов. Также освещены социальный подход к чтению и чтению, концепция и методическое обеспечение развития навыков чтения.

SUMMARY:

The article talks about the place and role of reading culture in the development of moral and moral qualities of primary school students. Also, the social approach to reading and reading, the concept and methodical support of reading skills development are covered.

Kitob o‘qish, kitobxonlikning jamiyat va shaxs uchun ahamiyati, kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-individual jihatlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, uning pedagogik, psixologik, metodik talablari, oilaviy kitobxonlik va sinfdan tashqari kitob o‘qishni tashkil qilish masalalari insonni ijtimoiylashuvida muhim dolzarb muammolar hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda kitob o'qish ijtimoiy hamda madaniy antropologiyaning yangi madaniy amaliyoti deya baholanib, uni tahlil etish tarixiy tadrijiylik negizida amalga oshirilmoqda. Kitob mutolaa qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy jarayonning indikatorini sifatida belgilangandi. Shu sababli kitob o'qish xususiyatining retrospektiv ko'rsatkichlarini o'rganishga yo'naltirilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Global axborotlashuv sharoitida intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Binobarin, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha umumbashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan yaratilgan g'oya) tashkil etadi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotni belgilab beruvchi kreativ va innovatsion g'oyalarni asoslashda shaxsning fikrlash, yanada aniqrog'i kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Har qanday jamiyatda shaxslarning fikrlash malakasiga egaliklari, qolaversa, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatini o'zlashtira olishlari badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaliklariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zero, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qish shaxsda fikrlash, tasavvur, tahlil hamda tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada esa jamiyatni har tomonlama taraqqiy etishni ta'minlovchi g'oyalar shakllandi. Shu sababli so'nggi uch yil davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bu borada keng ko'lamga ega tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish shaxsni intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta'sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, kitob o'qish orqali o'quvchilarning: nutqi rivojlanadi; nutqi (nutq lug'ati) boyiydi; tasavvuri o'sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; "ijtimoiy idroki" shakllanib boradi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerak, shaxsda "ijtimoiy idrok"ning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kitob o'qishga ijobiy yondashishlariga erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu vazifani hal qilish orqali esa boshlang'ich ta'lim davridan boshlab shaxs (o'quvchilar)ni ijtimoiy munosabatlarga izchil, to'g'ri yo'naltirib borish zarurligi o'z isbotini topadi.



Pedagogik manbalarda o‘quvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning asosiy turlari o‘yin, mehnat va o‘qish ekanligi qayd etib o‘tiladi. O‘yin faoliyati ixtiyoriylikka asoslanib, o‘quvchilar tomonidan borliqni anglash, amaliy harakatlarni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish, kattalarning harakatlarini imitatsiyalash uchun imkoniyat yaratiladi. Mehnat va o‘qish faoliyatlari majburiylik xususiyatiga ega. Ular orqali o‘quvchilar mehnat va o‘qish (ta‘lim olish)ni ijtimoiy nazariyat ekanligini angelaydi, muayyan turdagi mehnat faoliyatini bajarishga oid ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi, uni tashkil etish jarayonida ijobiy fazilatlar - mehnatsevarlik, tartibli, intizom, o‘zgalarning mehnati hamda mehnat mahsulotlariga ijobiy munosabatda bo‘lish, ularni asrash, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik, mas‘uliyat kabilarni o‘zlashtira boradi.

Pedagogik kuzatish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, shuningdek, ularning ota-onalari bilan olib borilgan savol-javob, suhbatlar natijasida bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish quyidagi omillar yordamida yuzaga kelishiga ishonch hosil qilindi; kitobning o‘ziga xos shaklga egaligi, ko‘plab tasvirlarga boyligi, ularni bezatishda yorqin ranglardan foydalanilganlik, asar syujetining oson, ravon bayon etilganligi, asar qahramonlarining hayvonlar, o‘simliklar, gullar, qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlardan iborat bo‘lishi, shuningdek, sehirgarlik, sarguzasht va sayohatlarga asoslanganligi, asar xotimasining ijobiy yakuni hisoblanadi.

Pedagogika yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muhim ahamiyat va tarbiyaviy ta‘sirga ega ekanligi, shuningdek, ularni tashkil etishda rolli o‘qish, suhbat, “o‘ziga tortuvchi” suhbatdan foydalanish, shuningdek, rang-barang syujetli matnlarni tanlash, ularni o‘qish, yo‘l-yo‘lakay muhokama qilish, eng qiziq o‘rinlarda to‘xtalish kabi metodlardan foydalanish samarali ekanligi aniqlangan.

Zamonaviy sharoitda jamiyat taraqqiyotida bolalar kitobxonligi muammosi ommaviy tus olgan masaladir. Bolalar kitobxonligini maqsadli tashkil etish maktabning asosan boshlang‘ich maktabning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Malumki, Vazirlar mahkamasining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e‘lon qilindi. Bunga ko‘ra yurtimizda barcha sohada kitobxonlikni targ‘ib etish, turli xil loyihalar va tanlovlar ishlab chiqish, u orqali yoshlarda kitob mutolaasiga qiziqish uyg‘otish maqsad qilib qo‘yildi. Kitob o‘qish inson dunyoqarashini kengaytirib, bilimini oshiradi, fikrlash



qobilyatini yuksaltirib boradi. Yosh avlod bizning vatanimizning ertangi egalari, ularning bilimli, aqlli, manan yetuk qilib tarbiyalashda ota-onalarining, ustozlarning oʻrni beqiyosdir. “Yoshlikda olingan bilim, toshga oʻyilgan naqsh kabidir” deb bejizga aytilmagan. Bolalar yoshlikdan ota-onalarining aytgan alla, ertak, hikoyalarini maktabda boshlangʻich sinfda oʻzlari oʻqishni boshlagan hikoya, ertaklar orqali kitob, kitob mutolaasi dunyosiga kirib boradilar. Shu sababli bu davrlar bolalarda alohida eʻtiborni talab qiladi. Bu davrda bolada poydevor shakllana boshlaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻyinqaroq, koʻproq kompyuter oʻyinlari, telefon oʻynashni yoqtirishadi, ota-onalari esa bolalarini kitob oʻqishlarini xohlashadi. Bu masalaga yechim sifatida ota-onalar bolalariga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib audio ertaklar, rasmi kitoblar qoʻyib berishlari maqsadga muvofiqdir. Xalqimiz orzu qilgan va voyaga yetqazayotgan maʼnaviy, barkamol avlodni tarbiyalashda boshlangʻich taʼlim juda muhim oʻrin tutadi. Boshlangʻich taʼlim uzluksiz taʼlim ichida alohida ajralib turadi. Bu taʼlim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga koʻtaradigan ijodkor shaxsni shakllantirishda mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga taʼlim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi oʻqish darslarida amalga oshiriladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uygʻotish, bogʻlanishli nutqini oʻstirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish oʻqish darslarining tub mohiyatini tashkil etib kelmoqda.

Maktabda taʼlim-tarbiya ishlarini yaxshilashda, oʻquvchilarning har tomonlama kamol topishida sinfdan tashqari oʻqish darslarini muntazam ravishda oʻtkazib turish yoshlarning hayotda oʻz oʻrinlarini egallashlarida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sinfdan tashqari oʻqishning asosiy maqsadi, oʻquvchilarni kitoblarga, badiiy asarlarga qiziqishlarini oshirish, bilimlari asosida kitob ustida ishlash yuzasidan koʻnikma va malakalar hosil qilish, dunyoqarashi va nutqlarini oʻstirish hamda kutubxonada mustaqil ishlash tajribalarini paydo qilishdan iborat masaladir. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yosh kitobxonlarda kitobni mustaqil oʻqishga havas uygʻotish; yosh xususiyatlariga mos boʻlgan adabiyotlar va ularning turlari bilan oʻquvchilarni tanishtirish, mustaqil oʻqish uchun kitob tanlash, olib berish, tanlangan kitoblarni ongli ravishda oʻqib, oʻqilganlarning mazmunini idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritishga oʻrgatish talab qilinadi. Sinfdan tashqari oʻqish uchun kitob tanlashda uning taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga eʻtibor berilishi lozim.

Maʼnaviyat asosida tarbiya yotadi. Tarbiya ota-ona, maktab, mahalla kabi omillar asosida shakllanib boradi. Yuqorida sanab oʻtilganlardan eng muhimi



maktab hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchi ma'naviyatini shakllanti-rish uchun xizmat qiladigan barcha zaruriy shart-sharoitlar ishlab chiqilmoqda. Bu yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun davlat tomonidan yaratilayotgan yuksak g'amxo'rlikdir. Lekin, natija ba'zi hollarda kutilganidek chiqmayotganligi tashvishli holdir. Ba'zi o'quvchilarning aqliy "kitob javonlari" dan o'qish darslarida o'tilgan asarlar ham topilmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. O'qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazimizda bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish mashg'ulotlari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg'usi rivojlantiriladi. O'quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarni to'g'ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi ahamiyatlidir. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi –o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalash hisoblanadi. Bolalarga kitob o'qitishda ularga qiziqarli bo'lgan kitoblarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlarga qiziqish bildirsa, hayvonlar hayoti haqida ertaklar o'qib berish kerak. Vaqtni ayamasdan kitob o'qib berilsa , bola ham asta-sekin o'zi muntazam va mustaqil tarzda kitob o'qiy boshlaydi.

Bolajonlarni tez-tez kutubxonaga olib borish lozim. Bolalarda doimiy ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish maqsadida, haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Kitoblarni birgalikda ko'rib chiqib, birgalikda tanlab, birgalikda o'qish samara beradi. Kitoblar haqida tez-tez suhbatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bolalarni kitob o'qishga mehrini, g'ayratini oshirmoqchi bo'lsak, tez - tez ertaklar, hikoyalar aytib berish , umuman kitoblar va ularning mazmun - mohiyati haqida suhbatlashib turish kerak. Hayotda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarni bolalarga ertak va hikoyalarga bog'lashga harakat qilish lozim. Bundan tashqari ma'lum bir kitobning kino, multfilm ko'rinishini birgalikda tomosha qilib, so'ng solishtirishi, kitob va kinodan olgan fikrlarini bilib olish mumkin. Bu bolalarda nafaqat kitob mutolaasiga balki, mushohada qilishga o'rgatadi, tahlil qilish qobilyatini ham oshirib boradi.



Bulardan tashqari bolalarga tinch xona qilib berish ham muhimdir. Bolalarni chalg'itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo'lgan o'zi uchun qulay bo'lgan xona yoki burchak tashkil qilib berish zarur. Bolalar ota-onasidan namuna oladilar. Agar ota-onalar muntazam ravishda kitob mutolaa qilishsa, boshqa oila a'zolari bilan turli kitoblar to'g'risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavq olganligini namoyon qilsa, bolalarga o'rnak bo'lgan hisoblanadi. Kitob o'qish asta-sekin bolalarni sevimli mashg'ulotiga aylanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rag'batlantirib borsa ham ularning qiziqishlari yanada oshadi. Ota-onalar bolalarni bilan turli xil o'yinlar orqali kitob mutolaasiga qiziqtirishlari mumkin. Bolalarda o'zining kutubxonasini yaratishni oz bilsada kitoblarni o'qib, to'ldirib borishini aytish yaxshi samara beradi. Kitobga qiziqish, kitob haqidagi tasavvurlar insonga o'yin faoliyatidan boshlab singdirib boriladi. Dastlab ularga ota-onalar tomonidan qisqa mazmunda ertaklar o'qib berish orqali, badiiy obrazlar go'zalligini his etib tarbiyalanib boradi. Ana shu dastlabki uchrashuv bolaning o'quvchilik davrdagi ma'naviy hayotining barcha sohalari, ya'ni mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib bola hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Demak, bolani kitobga qiziqtirish unda kitobxonlikni shakllantirish dastlab oiladan boshlanar ekan.

Ota-ona bolaga qiziqarli, uni hayolot olamiga yetaklaydigan ertak va rivoyatlarni mutolaa qilib berar ekan, bolada mardlik, jasurlik, irodalilik, birdamlilik, hamjihatlik, mehr va muhabbat, ezgulik xislatlari mukammal shakllanib boradi. Bu jarayon bolaga ota-ona tomonidan maktabga ilk qadam qo'ygungacha davom ettirilib, boshlang'ich sinfga kelgandan keyin esa o'zi kitoblarni mutolaa qilishga harakat qila boshlaydi. Oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi o'quvchining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirib borishi, bolada kitob o'qish ishtiyoqini uyg'otishi kerak. Bolada kitob o'qishga ishtiyoqni shakllantirishda ota-ona kitob tanlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- √ kitobning bola yoshiga mos kelishi;
- √ kitobni bolaning xarakteriga qarab tanlash;
- √ kitobning bolaga o'zi qiziqadigan kasbni tanlashda turtki bo'lishi;
- √ kitobning mazmuniga ahamiyat berishi;
- √ kitobning qanday tilda yozilganligini e'tiborga olish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozim deb hisobladim, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-ona kitob tanlashda e'tiborga olishi va ahamiyat berishi talab etiladi. Shaxsda kitob o'qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati,



amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim. Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta'limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo'g'ini boshlang'ich sinflar o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo'lga qo'yilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini samarali yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash Milliy Dasturini tasdiqlash" to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 781-son Qarori Toshkentsh., 2020-yil 14-dekabr, 781-son.
2. Usmonova G.Yu. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning xorij tajribalari" "Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondoshuvlar. "Muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 2-sonli onlayn konferentsiyasi. 26-30-betlar.
3. Mo'minova D.A "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi" (Monografiya) Namangan-2019
4. Hayitova F.A "Maktabda o'quvchilarning o'qish madaniyatini shakllantirishning samarali usullari" //Иновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 6.